



UDK:82-4:323.28

*Jaxongir BOYBUTAYEV,*  
*O'zbekiston IIV Akademiyasi dotsenti, PhD*

*TDTTrU professori, f.f.d J.Ramatov taqrizi asosida*

### KARL GEYNSENNING “QOTILLIK” ESSESI YOXUD ZAMONAVIY TERRORIZM KONSEPSIYASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada terrorizmning mafkuraviy va axloqiy ildizlari XIX asr radikal siyosiy tafakkuriga borib taqalishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqotda nemis inqilobchi mutafakkiri Karl Geynsenning “Qotillik” (“Qotillik va ozodlik”) asari zamonaviy terrorizm konsepsiyasining ilk nazariy namunasi sifatida falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Maqolada muallif tomonidan zo‘ravonlikning radikallashuv evolyutsiyasi zulmdan tiranotsidga, degumanizatsiya va qo‘rqitishdan terrorizmga bo‘lgan mantiqiy zanjir sifatida ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** terrorizm, Karl Geynsen, qotillik, siyosiy zo‘ravonlik, tiranotsid, degumanizatsiya, radikallashuv, mafkura.

### ЭССЕ КАРЛА ГЕЙНЦЕНА “УБИЙСТВО” ИЛИ КОНЦЕПЦИЯ СОВРЕМЕННОГО ТЕРРОРИЗМА

Аннотация

В данной статье научно обосновывается, что идеологические и нравственные корни терроризма восходят к радикальной политической мысли XIX века. В исследовании работа немецкого революционного мыслителя Карла Гейнца “Убийство” (“Убийство и свобода”) анализируется с философской точки зрения как первый теоретический образец концепции современного терроризма. Автор статьи раскрывает эволюцию радикализации насилия в виде логической цепи: от угнетения к тираноциду, от дегуманизации и запугивания к терроризму.

**Ключевые слова:** Терроризм, Карл Гейнцен, убийство, политическое насилие, тираноцид, дегуманизация, радикализация, идеология.

### KARL HEINZEN'S ESSAY “KILLING” OR THE CONCEPT OF MODERN TERRORISM

Annotation

This article scientifically substantiates that the ideological and moral roots of terrorism date back to the radical political thought of the 19th century. The study analyzes the work of the German revolutionary thinker Karl Heizens "Murder" ("Killing and Freedom") from a philosophical point of view as the first theoretical example of the concept of modern terrorism. The author of the article reveals the evolution of the radicalization of violence as a logical chain: from oppression to tyrannicide, from dehumanization and intimidation to terrorism.

**Key words:** Terrorism, Karl Heinz, murder, political violence, tyrannicide, dehumanization, radicalization, ideology.

**Kirish va mavzuning dolzarbligi.** Zamonaviy siyosiy diskursda terrorizm, odatda, XX-XXI asrlarga xos bo‘lgan, nisbatan yangi va o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, “terrorizmga qarshi urush” konsepsiyasi terrorizmni globallasuvi bilan bog‘liq holda texnologik taraqqiyot va yangi xavfsizlik tahdidlari bilan izohlanadi.

**Metodlar va o‘rganilganlik darajasi.** Mazkur tadqiqot ishida mantiqiylik, tarixiy-komparativistik, qiyosiylik kabi metodlardan foydalanilgan. Mavzuni yoritishda W.Laqueur, D.Bessner, M.Stauch, B.Grob-Fitzgibbon, K. Heinzen, C.Wittke, E.Batalov, K.Gorbunovlarning tadqiqot ishlari o‘rganilgan.

**Adabiyotlar tahlili.** Mazkur tadqiqot doirasida terrorizm fenomenining mafkuraviy, tarixiy va falsafiy ildizlarini o‘rganishga bag‘ishlangan bir qator ilmiy manbalar tahlil qilindi. Terrorizm muammosining nazariy asoslari, uning shakllanish jarayoni hamda siyosiy zo‘ravonlik evolyutsiyasi masalalari ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turli ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganilgan.

Amerikalik tadqiqotchilar D.Bessner va M.Stauch terrorizm tarixini o‘rganishda Karl Geynsen qarashlarini zamonaviy terrorizmning intellektual ildizlari sifatida baholaydilar hamda uning g‘oyalari XIX asr siyosiy radikalizmining muhim bosqichi sifatida ko‘rsatadilar. Benjamin Grob-Fitzgibbon esa o‘z tadqiqotida tiranotsid g‘oyasidan ommaviy terrorizm konsepsiyasiga o‘tish

jarayonini tahlil qilib, bu evolyutsiya mafkuraviy jihatdan mantiqiy rivojlanganini ta’kidlaydi. Walter Laqueur esa terrorizmni tarixiy jihatdan uzoq davrlarni qamrab oluvchi siyosiy zo‘ravonlik shakli sifatida talqin qilib, uning zamonaviy ko‘rinishlari radikal g‘oyalarning davomiy shakli ekanini qayd etadi.

**Asosiy qism.** Tinch aholiga qarshi terrorizm zamonaviy hodisa emas. Siyosatchilarning “Terrorga qarshi urush”ga chaqiriqlari zamonaviy terrorizmning tarixiy o‘ziga xosligini anglatadigan ritorikasiga qaramay, inqilobiy ziyolilar 1840 yillarning oxirida italiyalik kimyogar Askanio Sobrero tomonidan nitroglitserin ixtiro qilingan va ommalashtirilganidan beri siyosiy rahbarlar va tinch aholiga qarshi terroristik taktikalardan foydalanishni targ‘ib qilmoqdalar. Bunday harakatlarni intellektual asoslab bergan va targ‘ib qilgan birinchi inqilobchi nemis inqilobiy muhojiri Karl Geynsen edi [1].

XIX asrda nemis siyosiy tafakkurining radikal yo‘nalishini vujudga keltirishda jonbozlik qilgan shoir, publitsist va inqilobchi shaxs Karl Peter Geynsen hisoblanadi. U 1848-1849-yillardagi “Baden” inqilobida Yevropadagi davlatlarni monarxiya boshqaruvidan respublika boshqaruviga o‘tishdagi holatini qayta tashkil etish g‘oyalari targ‘ib qilgan. Ayniqsa, u davlat hokimiyatiga nisbatan tanqidiy va radikal islohotlar orqali jamiyatni o‘zgartirishga qaratilgan qarashlari bilan ajralib turadi.

Karl Geynsen “Qotillik” deb nomlangan esesida: “Qotillik - xoh yakka, xoh ommaviy bo'lsin – tarixiy vazifalarni hal qilishning zaruriy vositasi bo'lib qolaveradi... Agar varvarlar partiyasini yo'q qilish uchun yarim qit'ani portlatib, qon daryosini oqizish kerak bo'lsa, vijdongiz qiynalmasin” [2] – degan holda, davlat va sulolarga qarshi kerak bo'lsa qonli terror qo'llashni ilgari suradi va o'zining radikal-siyosiy pozitsiyasini ko'rsatadi. Geynsenning qarashlaridan zamonaviy terrorizm mafkurasining aksariyat qoidalarini topish mumkin. Uning fikricha, reaksiyon qo'shinlarning kuchi va tartib-intizomiga shunday qurollarni qarshi qo'yish kerakki, ular yordamida kichik bir guruh odamlar maksimal darajada tartibsizlik keltirib chiqarishi mumkin bo'lsin. Bular – gazlar, raketalar. Yangi qirg'in vositalarini izlash zarur [3].

Karl Geynsenning “Qotillik” nomli esesida qotillik siyosiy jarayonlarni tezlashtiruvchi vosita sifatida talqin qilinadi va “tarixiy vazifa” yo'lida zo'rvonlikni oqlashga urinish kuzatiladi. Muallif zo'rvonlikni axloqiy jihatdan emas, balki siyosiy texnologiya sifatida ko'rib, kichik guruhlar orqali katta vayronkorlik keltirish g'oyasini ilgari suradi. Bu yondashuv inson hayotini instrumental qadriyatga aylantirib, zo'rvonlikni normallashtirish xavfini tug'diradi. Geynsenning qarashlarida ayrim ijtimoiy guruhlarning degumanizatsiya qilinishi ham ko'zga tashlanadi, bu esa ommaviy zo'rvonlikni oqlashga xizmat qilishi mumkin. Shu sababli uning g'oyalari tarixiy radikal qarshilik nazariyasidan tashqari, zamonaviy terrorizm mafkurasining konseptual ildizlari bilan ham bog'lanishi mumkin.

XIX asrning o'rtalarida Geynsen o'z davrining nufuzli va siyosiy jihatdan ta'sirchan inqilobchi zamondoshlari tomonidan jiddiy tanqid va masxaralarga duch kelgan. Jumladan, Fridrix Engels uni “sobiq liberal va quyi lavozimdagi davlat xizmatchisi” sifatida kamsitgan, Karl Marks esa Geynseni “ahmoq” va “nodon” deya baholagan. Aleksandr Gersen ham uning shaxsiyati va qarashlarini qattiq tanqid qilib, Geynseni “qo'pol va muvozanatdan yiroq” deb atagan hamda uning ommaviy zo'rvonlikka moyilligini keskin rad etgan [1]. Biroq, shunga qaramay bugun Geynsenning terrorizm tarixidagi o'rni tobora aniqroq namoyon bo'lib bormoqda. Ayniqsa, u nazariy va tizimli asoslab berilgan terroristik zo'rvonlik g'oyasining zamonaviy shaxslaridan biri sifatida baholanoqda. Xususan, qator tadqiqotlarda uning g'oyalari zamonaviy terrorizmning mohiyatini, intellektual ildizlarini tushinishda muhim manba sifatida ko'rsatilmogda. Xatto, ba'zi tarixchilar, jumladan britaniya va amerikalik tarixchi va siyosatchi Uolter Laker (Walter Laqueur) Geynseni zamonaviy terrorizmning buyuk bashoratchisi sifatida ta'riflaydilar [4]. Yana bir tarixchi Martin Miller o'z tadqiqotlarida Karl Geynsenning g'oyalari terrorizm haqidagi an'anaviy tasavvurlardan uning zamonaviy davrga xos nazariy konsepsiyasiga o'tishda hal qiluvchi intellektual bosqich bo'lganini ilmiy jihatdan asoslab beradi [5].

Gus Martin universitetlarda terrorizm bo'yicha umumiy kurslarda foydalanish uchun yaqinda nashr etilgan darslikda shunday yozadi: “Terrorizm yozma tarix boshlangandan buyon inson xulq-atvorining qora bir jihati bo'lib kelgan. Buyuk yetakchilar o'ldirilgan, guruhlar va shaxslar aql bovar qilmas zo'rvonlik harakatlarini sodir etgan, butun boshli shaharlar va millatlar qilichdan o'tkazilgan – bularning barchasi oliy manfaatlarni himoya qilish nomidan qilingan. Terrorizmga qanday ta'rif berilmasin, u hamisha jamiyatlar barqarorligi va oddiy insonlar xotirjamligiga tahdid solib kelgan” [5].

Karl Geynsenning “Qotillik” maqolasida qotillik tarixiy zaruriyat sifatida taqdim etiladi. 1853 yilda Geynsen “Qotillik” (Der Mord) esesini qayta ko'rib chiqib, uni “Qotillik va ozodlik” (Murder and Liberty) [6] deb nomlangan 30 sahifali risolaga aylantiradi.

“Biz tarix deb ataydigan katta, qonga bo'yalgan manzara bizga qotillikni ming xil shaklda, qotillarni esa ming xil nomda ko'rsatadi. Ba'zan uni urush deb, qotillarni esa qahramonlar deb atashadi; ba'zan uni qo'zg'olon deb, qotillarni esa xalq deb atashadi; yana uni suiqasd deb, qotillarni esa qaroqchilar deb atashadi va hokazo. Bu har doim bir xil oddiy maqsaddir, ya'ni: inson hayotini yo'q qilish orqali qarama-qarshilikni neytrallashtirish” [6] – deydi u ushbu risolasida.

Qotillik namoyandalari – ularning har qanday ko'rinishi hozir ro'paramizda turibdi. Ular shu yerda bizning hukmimizni va qarorimizni kutmoqda. Ular bizga maqtovg'a sazovor qaror bilan shunday deyishadi: “Biz qotillik qildik, qotillik qilyapmiz va qo'limizdan kelganicha qotillik qilamiz. Biz hukmronlik qilish uchun odam o'ldiramiz, siz esa ozod bo'lish uchun odam o'ldirishingiz kerak. Qotillik tarixiy vosita ekanligi haqida boshqa bahsga o'rin yo'q – biz buni tasdiqlaymiz; bu muqarrar zarurat ekanligi haqida boshqa bahsga o'rin yo'q – biz shunday deb bilamiz; bu to'g'ri ekanligi haqida boshqa bahsga o'rin yo'q – biz buni amalga oshiramiz. Nima desangiz deng, qo'lingizdan kelganini qiling: “G'olib haq” [6].

Benjamin Grob-Fitsgibbon “Xanjardan bombagacha: Karl Geynsen va siyosiy terror tafakkuri” deb nomlangan maqolasida “Geynsenning esesida zolim qotillik haqidagi an'anaviy tushunchalardan zamonaviy terrorizmning kattaroq zo'rvonligiga o'tish oson amalga oshiriladi. Xanjar bilan bomba orasidagi masofa dastlab ko'ringandek katta emas” [5] – degan xulosaga keladi.

Benjamin Grob-Fitsgibbonning “Xanjardan bombagacha: Karl Geynsen va siyosiy terror tafakkuri” maqolasida siyosiy zo'rvonlik evolyutsiyasi muhim nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Muallif “xanjar” va “bomba” o'rtasidagi farqni texnik emas, balki mafkuraviy va axloqiy transformatsiya sifatida talqin qiladi. Karl Geynsen qarashlarida zolimni yakka tartibda yo'q qilish g'oyasi asta-sekin ommaviy zo'rvonlikni qabul qiluvchi mafkuraga aylanishi ko'rsatiladi. Natijada zo'rvonlik ko'lami axloqiy cheklov emas, balki samaradorlik masalasiga aylanadi. Bu jarayonda aybdor va aybsiz o'rtasidagi farq yo'qolib, ommaviy qurbonlik “muqarrar tovon” sifatida qabul qilinadi. Shuning uchun muallif terrorizmni yangi texnologiyalar mahsuli emas, balki radikal g'oyalarning kengaygan shakli sifatida baholaydi hamda Geynsen qarashlarini siyosiy terrorizm tafakkuriga olib boruvchi konseptual bosqichlardan biri sifatida talqin qiladi. Zo'rvonlikning radikallashtirish evolyutsiyasi: tiranotsiddan terrorizmga deyan tushuncha chuqur falsafiy ma'noga ega hisoblanadi. Ushbu fikrni bizning nazarimizda quyidagicha izohlash mumkin, ya'ni:

“Zulm → zo'rvon qarshilik → tiranotsid → degumanizatsiya → qo'rqitish → terrorizm” zanjiri zo'rvonlikning tasodifiy emas, balki mantiqiy va bosqichma-bosqich radikallashtirish jarayoni ekanini ko'rsatadi. Bu modelda har bir bosqich keyingi, yanada keskin shakl uchun axloqiy va mafkuraviy sharoit yaratadi. Har bir bosqichni quyidagi zanjir orqali ketma-ketligini izohlash mumkin:

1. Zulm → zo'rvon qarshilik. Zulm sharoitida qarshilik dastlab reaktiv xarakterga ega bo'ladi: u o'zini himoya qilish, adolatni tiklash istagi bilan asoslanadi. Bu bosqichda zo'rvonlik hali ham cheklangan, ma'naviy jihatdan oqlanishga muhtoj va muayyan chegaralarga ega.

2. Zo'rvon qarshilik → tiranotsid. Tiranotsid – zo'rvonlikni shaxsga yo'naltirish orqali uni “adolatli” deb ko'rsatish urinishi. Zolim yakka shaxs sifatida ramzlanadi; uni yo'q qilish orqali tizim ham qulashga ishoniladi. Bu yerda zo'rvonlik hali ham an'anaviy axloqiy meyorlar bilan qisman uyg'un: nishon aniq, qurbon “aybdor” deb qaraladi.

3. Tiranotsid → degumanizatsiya (markaziy burilish nuqtasi). Bizning fikrimizcha, aynan degumanizatsiya terrorizmga o'tishdagi eng hal qiluvchi bosqichdir. Chunki shu yerda zo'raonlikning axloqiy arxitekturasi o'zgaradi:

- zolim shaxs emas, guruh, qatlam yoki umumlashtirilgan “dushman”ga aylanadi;
- “aybdor” va “aybsiz” o'rtasidagi farq yo'qoladi;
- inson hayoti mustaqil qadriyat emas, siyosiy resurs sifatida qabul qilinadi.

Degumanizatsiya natijasida qarshi tomon odam sifatida emas, balki yo'q qilinishi mumkin bo'lgan obyekt sifatida tasvirlanadi. Shu paytdan boshlab zo'raonlikni cheklab turuvchi axloqiy to'siqlar erishiladi.

4. Degumanizatsiya → qo'rqitish. Qachonki dushman insoniy maqomdan mahrum etilsa, zo'raonlikning maqsadi ham o'zgaradi. Endi u adolatni tiklash emas, balki qo'rquv ishlab chiqarishga qaratilgan bo'ladi. Qo'rqitish – bu zo'raonlikni kommunikatsiyaga aylantirishdir: u muayyan qurbon uchun emas, keng auditoriyaga ta'sir qilish uchun amalga oshiriladi.

5. Qo'rqitish → terrorizm. Shu tariqa terrorizm paydo bo'ladi – zo'raonlikning ramziy va strategik shakli. Bu bosqichda:

- qurbonlar tasodifiy bo'lishi mumkin;
- zo'raonlik ommaviylik orqali “samarali” deb baholanadi;
- axloqiy oqlash o'rmini mafkuraviy mutlaqlik egallaydi.

Aynan shu nuqtada, terrorizmning strategik zo'raonlik sifatida keng ijtimoiy muhitga qo'rquv signali yuborishga qaratilganligi, uni axloqiy baholash doirasidan mafkuraviy doiraga o'tgaligini ko'rsatadi. Bu yerda zo'raonlikni qurbon bo'lgan shaxsning kimligi emas, balki zo'raonlik tufayli berilgan siyosiy xabar muhim ahamiyat kasb etadi. Zo'raonlik qanday qilib bir ko'rimishdan ikkinchi ko'rinishga ko'tarilganligi mumkinligini amerikalik tarixchi olim Karl Vittke ham “Oqimga qarshi Karl Geynsenning hayoti (1809-1880)” nomli asarida tahlil qilib beradi.

Karl Vittke “...Geynsen kichik qotillar odatda osilib qolishini, kattalari qochib ketishini va ozodlik partiyasida ko'plab qurollar, reaksion partiyada esa faqat vositalar borligini aniqladi. U urushni uyushgan, ommaviy qotillik sifatida, shuningdek, siyosiy tanadagi saraton kasalligini kesib tashlash

yoki ma'lum bir siyosiy maqsadni amalga oshirish uchun vosita yoki pichoq sifatida tasvirlagan” [7] – deydi. Mazkur parcha orqali muallif, Karl Geynsen tafakkurida zo'raonlikning axloqiy muammodan qanday qilib siyosiy darajaga ko'tarilganligi ochib beradi. Vittke bu yerda Geynseni faqat radikal publitsist sifatida emas, balki zo'raonlikning mantig'ini anglagan ilk siyosiy nazariyotchilardan biri sifatida ko'rsatadi.

Geynsenning “kichik qotillar osiladi, kattalari esa qochib ketadi” degan fikri zo'raonlik adolat mezonlariga emas, balki hokimiyat munosabatlariga bog'liq ekanini anglatadi. Bu yerda zo'raonlikning axloqiy bahosi inkor etilib, uning ko'lami va natijasi asosiy mezon sifatida ko'rsatiladi. Ya'ni, yakka zo'raonlik jinoyat deb baholansa, davlat miqyosidagi ommaviy zo'raonlik “tarixiy zarurat” sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, “ozodlik partiyasida qurollar, reaksion partiyada esa vositalar bor” degan tezis Geynsenning zo'raonlikni siyosiy hokimiyatni qayta taqsimlash vositasi sifatida talqin qilishini ko'rsatadi. U urushni “uyushgan ommaviy qotillik” deb baholab, davlat zo'raonligi bilan yakka qotillik o'rtasidagi axloqiy chegarani yo'qqa chiqaradi hamda siyosiy raqibni “saraton”ga qiyoslash orqali degumanizatsiyani kuchaytiradi.

Vittke tahlili Geynsen qarashlari zamonaviy terrorizm mafkurasi bilan bog'liq muhim konseptual jihatlarini ochib beradi. Bu yondashuv zo'raonlikni jinoyat emas, balki siyosiy vosita sifatida talqin qiladi va shu orqali ommaviy zo'raonlikni nazariy jihatdan oqlashga xizmat qiladi. Shu sababli Geynsen merosi terrorizm tafakkurining intellektual ildizlarini tushinishda muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Karl Geynsen merosi inqilobiy radikalizm tarixi uchungina emas, balki zamonaviy terrorizm mafkurasining intellektual ildizlarini anglash uchun ham o'ta muhimdir. Uning g'oyalari siyosiy ozodlikka emas, balki zo'raonlikni normallashtirish, degumanizatsiyani mafkuraviy meyorga aylantirish va inson hayotini tarix nomidan qurbon qilish xavfiga olib keladi. Shu sababli, Geynseni faqat inqilobchi publitsist sifatida emas, balki terrorizm tafakkurining konseptual ko'prigi sifatida tanqidiy tahlil qilish zamonaviy ekstremizmni tushinish va unga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Bessner, D., & Stauch, M. (2010). Karl Heinzen and the Intellectual Origins of Modern Terror. *Terrorism and Political Violence*, 22(2), <https://doi.org/10.1080/09546550903445209>
2. Баталов Э.Я. Философия бунта (Критика идеологии левого радикализма). – М.: Политиздат, 1973.; Горбунов, К.Г. Терроризм: социально-психологическое исследование: монография / К.Г. Горбунов. – Омск: Изд-во Ом. гос. ун-та, 2010.
3. Горбунов, К.Г. Терроризм: социально-психологическое исследование: монография / К.Г. Горбунов. – Омск: Изд-во Ом. гос. ун-та, 2010.
4. Walter Laqueur. *The Age of Terrorism*. – Boston : Little, Brown, 1987.
5. Grob-Fitzgibbon, B. (2004). From the dagger to the bomb: Karl Heinzen and the evolution of political terror. // *Terrorism and Political Violence*, 16(1). <https://doi.org/10.1080/09546550490446036>
6. Karl Heinzen. *Murder and Liberty*. (Printed For The First Time In 1853, As A Contribution For The “Peace League” Of Geneva.). Indianapolis, – Indiana. 1881.
7. Carl Wittke. *Against the Current The Life Of Karl Heinzen (1809 - 80)*. – Chicago • Illinois: University Of Chicago Press, 1945.